

“HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ

**“Toshkent shahar elektr tarmoqlari
korxonasi” AJ**

Ularxon To'xir tuman elektr ta'minoti korxonasi



**ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR
TA'MINOTI
SHARTNOMASI**

Shartnoma raqami 6931

Iste'molchi nomi Ўзбекистон давлат консерватори

Iste'molchi uyali telefon raqamlari 90-351-98-18

Iste'molchi ma'sul xodimi _____

Brigada raqami _____

Kitob raqami _____

ULGURIH ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI

SHARTNOMASI

2022 yil "05" sentabr

6931 - son

Шарҳнома

ITK nomi

"Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi" AJ ning 2022 yil " " da ro'yxatdan o'tkazilgan

son bosh ishonchnoma asosida faoliya yurituvchi

Шарҳнома раҳбари А. Мухомедов

(tomon elektr ta'minoti korxonasi nomi)

F.I.O

(keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi korxona" deb ataladi) bir tomondan hamda "Iste'molchilarning" asosida faoliyat yurituvchi

Узбекистон Республикаси Исте'molchilarning

(iste'molchining nomi) rahbari

Раҳбар Н.Т. Уринов

(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi),

(Iste'molchi rahbarining F.I.O.)

ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

Ushbu elektr energiyasi ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - "Shartnoma" deb ataladi) muvofiq, "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi

II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI XISOBGA OLISH

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

Aktiv 39410,70 kVt*soat reaktiv kVar*soat

2.2. Yetkazib beriladigan energiyani shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi 175 999 815 040 so'mni, tarif bo'yicha 104 999 815 040 so'mni, 233333 kVt*soat bo'yicha 704 999 815 040 so'mni, 157777 kVt*soat bo'yicha 104 999 815 040 so'mni tashkil etadi.

2.3. "Iste'molchi"ga yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik xajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada keltirilgan.

Yetkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun elektr ta'minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan, strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilarga zarur bo'lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha iste'molchi bilan belgilangan tartibda oldindan kelishilgan holda yetkazib berilishini ta'minlashi shart (7-ilova)

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformatsiya koeffitsiyentlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) elektr energiyasini xisobga olish uskunolari, shuningdek elektr energiyasini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan bepul o'rnatiladi, plomballanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlaridagi elektr energiyasini hisobga olish elektron asboblari sotib olish, o'rnatish, ro'yxatga olish, davriy davlat qiyoslovidan o'tkazish va plomballash, shuningdek, mavjud (jumladan, induksion) hisobga olish asboblari ilk marotaba (birinchi marotaba) hududiy elektr tarmoqlari korxonasi mablag'lari hisobidan almashtiriladi.

Hisobga olish iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (tok va kuchlanishni o'lchash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek, ikkilamchi kommutatsiya, hisobga olish asboblarning shikastlanishi va ularning yo'qolishi) hisobga olish nazorat qilish asboblari va ularga tegishli asbob-uskunalar almashtirish, ta'mirlash, davlat qiyoslovidan o'tkazish va o'rnatish iste'molchi tomonidan ular qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar bir stavkali, tabaqalashtirilgan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz davr - sutkaning yorug' vaqtida (soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha) - belgilangan tarif bo'yicha,

tig'iz davr - eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6⁰⁰ dan 9⁰⁰ gacha, kechki eng katta miqdor soat 17⁰⁰ dan 22⁰⁰ gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali;

tungi davr - sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22⁰⁰ dan 24⁰⁰ gacha va 00⁰⁰ dan 6⁰⁰ gacha) - belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga to'g'ri keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun cheginmalar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilingan (hosil qilgan) reaktiv energiyani 1 kVar soat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energiyani shartnomaviy miqdori reaktiv energiyani iqtisodiy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Reaktiv energiyani har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffitsiyentining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energiyani shartnomadagi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ulangan quvvatidan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi iste'molchilar (turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'imiari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi blokklar yaratish bo'yicha faoliyat) foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lovlarni tegishli tarif guruhiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi ko'effitsiyentga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir nechta tarif guruhlariga mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhiga alohida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

3.4. "Ta'minotchi korxona" iste'molchi (yoki uning vakili) bilan birgalikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini har oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini hisobga olish asboblari ulash sxemasini tekshirib ko'rishi vakolatiga ega.

"Iste'molchi" hisob-kitob davri tugagandan so'ng Elektr ta'minoti korxonasi vakolatli vakili bilan birgalikda (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan zarurat bo'lganda holda) yoki uning ishtirokisiz hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu shartnomaning 5-ilogasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi va ushbu hisobotni "Ta'minotchi korxona"ga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali har oyning "05" sanasigacha taqdim etadi. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi taqdim etilgan hisobot yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi hajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunda, to'lovlarni tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiradigan "Iste'molchi"lar bo'yicha elektr energiya sarfi bo'yicha hisobotda foydalanilgan elektr energiya (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlarda foydalanilgan elektr energiya hajmlari alohida ham ko'rsatilishi shart.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EHNAT) joriy etilgan iste'molchilarda hisobga olish asboblardagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgargan sanadan qat'iy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida qoladi va iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

Tarif o'zgargan taqdirda, iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langan xajmi uchun to'lov kunidan boshlab keyingi bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Aritmetik xatoliklar, ko'rsatkichlarda noaniqliklar kuzatilganda, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlar tegishli tarif bo'yicha kVt*soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va "Ta'minotchi korxona" tomonidan da'vo muddati doirasida ko'rsatkichlardagi tafovut yoki qo'shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi.

3.6. "Iste'molchi"ga elektr energiyasi yetkazib berish 30 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, iste'molchi oylik elektr energiya iste'moli bo'yicha hisobotni oyning 01 sanasidan 05 sanasigacha elektron yoki yozma shaklda topshiradi, so'ngra oyning 10-sanasigacha hisobot oyi va kelgusi oy uchun shartnomada belgilangan 30 foizlik miqdor uchun oldindan haq to'laydi. Oylik iste'mol va oldindan to'lovni to'liq to'lamagan iste'molchilar, oyning 11-sanasidan boshlab ogohlantirishsiz elektr manbaidan uziladi.

Bunda, hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davmi ko'rsatib hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Ta'minotchi korxonaga murojaat qilganlari taqdirda elektr energiyasi iste'molchilarga 50 foiz oldindan haq to'lash asosida yetkazib berilishiga yo'l qo'yiladi. Oldindan haq to'lamagan hamda 50 foiz oldindan haq to'layotgan iste'molchilar tomonidan oyning oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilmagan hollarda mazkur iste'molchilarga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralar ko'riladi.

Muntazam ravishda (oydan ortiq vaqt davomida) to'lovlarni to'lamasdan kelayotgan iste'molchilar hech qanday ogohlantirishsiz tarmoqdan ajratiladi (maxsus tartibda elektr energiya yetkazib beriladigan iste'molchilar bundan mustasno).

3.7. "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi. To'lov to'g'risida iste'molchini xabardor qilish ogohlantirish hisoblanadi.

"Iste'molchi" turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta obyektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etiladi.

"Ta'minotchi korxona" tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini shakllantiriladi hamda iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi. Agar maxsus dasturiy mahsulot orqali yetkazish imkoniyat mavjud bo'lmasa hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i yozma shaklda beriladi.

(Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)

3.8. Hisobga olish pribori ushbu shartnomaga 3-ilogaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog'ining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi yoki taraflar kelishuvi asosida ushbu shartnomaga 4-ilogaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi va elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va iste'molchining hisobiga o'tkaziladi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlarining ko'p qavatli uyning ichki tarmoqdagi yo'qotishlari bundan mustasno.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarni amalga oshiradigan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi. (6-7-ilogalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi).

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarflining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi

tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davri uchun elektr energiyasi iste'molining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxona tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Zaruriyat bo'lganda ta'minotchi korxona iste'molchilar bilan birgalikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini xar oyda yozib olishi va elektr energiyasini hisobga olish priborlarini ulash sxemasini tekshirib ko'rishi kerak. "Iste'molchi" tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida "Ta'minotchi korxona"ga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan xisobot yuridik shaxslar xamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Energiya ta'minot korxonasi xodimlari har oyda hisoblagich ulanish sxemalarini tekshirishga majbur emas.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EINAT) ning joriy etilishi munosabati bilan iste'molchilarning hisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

"Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning shaxsiy xisob-raqam va hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari haqida batafsil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron xamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

3.12. Shartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, "Iste'molchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilingan elektr energiyasi ja'mi hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.

"Iste'molchi"ning elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun "Iste'molchi"ga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda yetkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.13. "Iste'molchi" va "Ta'minotchi korxona" har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.14. "Iste'molchi"ni quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

Ta'minotchi korxonaning qonuniy talabnomalari bajarilmaganida, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganida;

hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga tashqaridan aralashish ham-harakatlar amalga oshirilganda;

elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-taroj qilish yoki Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvarlagi 22-sonli Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda.

yagona elektr energetika tizimida elektr energiya va quvvatda tanqislik vujudga kelganda, avariyalarga yo'l qo'yimaslik va iste'molchilarning tarbisiz uzib qo'yilishining oldini olish maqsadida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o'chirish vaqtini ko'rsatgan holda, iste'molchilardan reklamalar, illyuminatsiyalar, bino va inshootlarni yoritgichlarini, elektr isitish va issiq suv bilan ta'minlash qurilmalarini o'chirib qo'yishni talabi bajarilmaganida;

Sud organlarining qonuniy kuchga kirgan qarorlariga asosan.

Iste'molchilar va subiste'molchilar (ijarachilar), tadbirkorlik subyektlari yoxud fuqarolar o'rtasida turli xil nizoli (kelishmovchilik) holatlarda, faqatgina sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarida tarmoqdan ajratish(ulash) belgilangan bo'lsa Ta'minotchi korxona elektr tarmoqdan ajratish yoki qayta ulashni amalga oshiradi.

3.15. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, "Iste'molchi"ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.16. Ta'minotchi korxona yetkazib berilgan elektr enegiya uchun qarzdor bo'lgan Iste'molchiga qarzni besh kun ichida to'lanishi haqida xabardor qilishni ta'minlaydi.

Ta'minotchi korxona Iste'molchini xabardor qilingan vaqtdan boshlab besh kun muddat o'tgandan so'ng, Iste'molchini debitor qarzdorlik uchun tarmoqdan uzib qo'yish va ularni qaytadan ulashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Qayta ulanishda Iste'molchidan to'lov kuni amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida xaq undiriladi. Bunda, elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari (EINAT)ga ulangan ya'ni, hisobga olish pribori avtomatik tarzda BILING dasturi tomonidan o'chirilgan iste'molchilarni tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi.

3.17. "Iste'molchi" elektr tarmoqlarining texnik holatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan aloxida shartnoma bo'yicha elektr energiyasining umumiy xajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda xaq to'laydi.

Ekspluatatsiya xarajatlarini subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.18. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lov tariflari quyidagi hollarda aholi uchun belgilangan tariflarga tenglashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" gi O'RIQ 327-son Qonunning 28-moddasiga asosan Oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o'zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda elektr energiyasi haqini to'lash aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida;

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 10 sentyabrdagi 525-f-sonli Farmoyishiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududidagi diniy tashkilotlar 2003 yilning 1 sentyabridan boshlab ularga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar elektr energiyasiga to'lovni aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha to'laydilar.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari, elektr energiyasidan aholiga elektr energiyasi yetkazib berish maqsadida foydalanuvchi idoraviy va munisipal uy-joy fondi, yuridik shaxslar yotoqxonalari, diniy tashkilotlar, shuningdek, elektr energiyasidan aholi ehtiyojlari uchun foydalanadigan lokal qozonxonalarga maishiy iste'molchilarga belgilangan tarif qo'llaniladi.

3.19. Elektr energiyasini hisobga olish asboblari va elektr energiyasini hisobga olish asboblari bilan birgalikda foydalaniladigan o'lchov transformatorlarini boshqa joyga o'rnatish va almashtirish ta'minotchi korxona bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Iste'molchining aybi bilan elektr energiyasini hisobga olish priboriga zarar yetkazilgan (plombasi buzilsa, oynasi sinsa va boshqalar), elektr energiyasini hisobga olish priborini ulash sxemasi o'zgartirilgan, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilgan, elektr energiyasini hisobga olish priboridan tashqari elektr qabul qilgichlarni ulash yoki energiya boshqa usulda o'g'irlangan hollarda, Ta'minotchi korxonaning vakolatli vakili belgilangan shakl bo'yicha qoidani buzish dalolatnomasini tuzadi. Ushbu dalolatnoma asosida Ta'minotchi korxona iste'molchini elektr tarmog'idan uzib qo'yadi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati Ta'minotchi korxona tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan iste'molchining ish soatlari soni hisobga olingan holda elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati bo'yicha quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

elektr energiyasini hisobga olish pribori, o'lchov transformatorlarini ulash sxemalari o'zgartirilganda, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilganda va hisobga olishni nazorat qilish asboblari tashqari elektr qabul qilgichlar ko'z bilan aniqlab bo'lmaydigan (aniqlash murakkab bo'lgan) yashirin yo'l bilan (yashirin elektr simlari, pereklyuchatellar montaj qilinishi va shu kabilar) ulanganda – elektr energiyasini hisobga olishning nazorat asboblari oxirgi almashtirilgan yoki ulanish sxemalari tekshirilgan kundan boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda;

elektr energiyasini hisobga olish priboriga iste'molchining aybi bilan zarar yetkazilganda (plombasi buzilishiga yo'l qo'yilgan, oynasi singan holatlar) yoki elektr energiyasi aylanib chiqishida ko'z bilan aniqlash mumkin bo'lgan boshqa usulda o'g'irlangan taqdirda – oxirgi marta aylanib chiqilgan kundan yoki elektron ko'rsatkichlar olingan kun boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori qiymatini hisob-kitob qilishda qoida buzish aniqlanishidan oldingi davr uchun amaldagi to'lovlar hisobga olingan holda, qayta hisob-kitob amalga oshirilayotgan vaqtidagi tarif qo'llaniladi. Bunda I tarif guruhidagi Iste'molchilar uchun o'g'irlik holatlarida hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati yagona elektr energetikasi tizimining maksimal yuklanish soatlarida amal qiladigan tarif bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

To'lov hujjatida xatolar yoki hisobga olish asboblari ko'rsatkichida noaniqliklar aniqlangan taqdirda (xatolik bilan ishlash holatlari yoki hisoblagich inson omili ta'siridagi nosoz ishlash holatlarida) haqiqiy elektr energiya xajmi hisob-kitob qilinadi.

Elektr energiyasini hisobga olish Iste'molchining aybsiz vaqtinchalik buzilganda yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob Ta'minotchi korxonaning qarori bo'yicha, hisobga olish buzilishiga qadar bo'lgan oldingi hisob-kitob davridagi yoki hisobga olish tiklangandan keyingi davrdagi o'rtacha sutkalik sarf bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyaning o'rtacha sutkalik sarfi bo'yicha hisob-kitob qilish davri bir oydan oshmasligi kerak va shu vaqt ichida hisobga olish tiklanishi zarur.

Agar, elektr energiyani hisobga olish priborini obyektiv sabablarga ko'ra, ko'rsatilgan muddatda (o'lchash transformatorining, hisobga olish priborining yo'qligi, o'tib bo'lmaydigan yo'llar va shu kabilar tufayli) tiklash imkoniyati bo'lmasa, iste'molchiga yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish tartibi va hisobga olishni tiklash muddati iste'molchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasining o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi.

Elektr energiyasidan foydalanishda Iste'molchi tomonidan yo'l-qo'yilgan qoidabuzilishlar Ta'minotchi korxona vakili va Iste'molchi tomonidan imzolangan ikki nusxadagi belgilangan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uning bir nusxasi Iste'molchiga beriladi va Ta'minotchi korxona tomonidan ushbu Qoidalarni buzgan Iste'molchi elektr qurilmalari tarmoqdan uzib qo'yiladi.

Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, qoida buzish dalolatnomasida iste'molchini tanishtirganlik to'g'risida belgi qo'yiladi.

3.20 Subiste'molchilar bilan shartnomalar to'g'ridan-to'g'ri rasmiylashtirilgan hollarda, iste'molchi va subiste'molchi o'rtasida ekspluatatsion xarajatlari yoki boshqa sabablarga ko'ra o'zaro kelishmovchiliklar sodir bo'lganda, asosiy iste'molchi tomonidan subiste'molchini elektr tarmoqdan ajratilgan holatlari uchun energiya ta'minot korxonasi javobgar hisoblanmaydi.

3.21 Subiste'molchilar bilan shartnomalar to'g'ridan-to'g'ri tuman ETK tomonidan rasmiylashtirilgan holatlarida, iste'molchi va subiste'molchi elektr tarmog'ida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar (yong'in, avariya holatlari, inson o'limi bilan bog'liq hodisalar va hokazolar) uchun energiya ta'minot korxonasi javobgar hisoblanmaydi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

"Iste'molchi"ning elektr qurilmalarini "Ta'minotchi korxona" elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

elektr energiyasi yetkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

"Ta'minotchi korxona"ga iste'mol qiladigan elektr energiyasi hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish.

Bunda elektr energiyasining shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan 10 kun oldindan (joriy oy tugaguncha) berilishi kerak.

elektr energiyasi to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan elektr energiyasi yetkazib berilishi oqibatida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki elektr ta'minot korxonasi (aybdor tashkilot) tomonidan yetkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplash;

Shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

Shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

Elektr energiyasi sababsiz yetkazib berilishi to'xtatilganda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta'minot shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo'ysunuvchi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

4.2. "Iste'molchi" quyidagilarga majbur:

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish;

foydalanilgan elektr energiyasi (quvvati) uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblari va asbob-uskunalarining zarur texnik holatini va iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta'minot korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
 "O'zenergoinspeksiya"ning yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;
 Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalarini talablariga rioya etish;
 o'rnatilgan tartibda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi vakiliga elektr energiyasini hisobga olish asboblari ko'rishiga imkon berish;
 yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga buyurtmanoma berish;
 kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan maxsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarning ehtiyojini hisobga olish.
 Iste'molchi tomonidan hisobga olish priborni EHNA/T tizimida muqobil (soz holda) ishlashiga to'sqinlik qilishi amaldagi Qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga asosan javobgar bo'lishiga sabab bo'ladi.
 Shuningdek, ulangan quvvati 5 MVt va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona"ning ta'abiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart:
 iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori;
 yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;
 yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.
 Ulangan quvvati 250 kVA va undan ortiq bo'lgan iste'molchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:
 mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan ilg'or normalarini ishlab chiqish - umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo'yicha; yillik, choraklik va oylik - ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga qarab qayta ko'rib chiqish;
 korxona bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste'molchilar guruhlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lishini aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
 kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo'ljallanayotgan prognoz-hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me'yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;
 mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me'yorlariga rioya qilish va ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;
 elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
 "Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarishi shart.
 "Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.
4.3. "Ta'minotchi korxona" quyidagi huquqlarga ega.
 iste'molchilardan elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan majburiyatlarni tegishli darajada bajarishni talab etish;
 iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoki buzilishi oqibatida unga yetkazilgan zararining belgilangan tartibda qoplanishi;
 avariya rejimida iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish (o'chirish);
 EHNA/Tga ulangan va oldindan to'langan mablag' tugagandan so'ng elektr energiyasi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish qurilmasiga ega hisobga olish asbob mavjud bo'lgan iste'molchilarni uzish. Bunda uzilgandan so'ng iste'molchining ko'rish mumkin bo'lgan zarari uchun "Ta'minotchi korxona" javobgar bo'lmaydi.
 Mazkur Qoidalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan holatlarda iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
 "Ta'minotchi korxona" qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
4.4. "Ta'minotchi korxona" quyidagilarga majbur:
 "Iste'molchi"ga elektr energiyasini elektrotarmog'i orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan xajmda muntazam yetkazib berish;
 uskunalar, elektr uzatish liniyalarni, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi obyektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;
 elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;
 "Iste'molchi"ni elektr energiyasini yetkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish (Iste'molchi mas'ul xodimlarini uyali aloqa vositasi orqali (telefonogramma), ovozli xabar, telegram xabarnoma, SMS xabar orqali, internet sayti tarmoqlari orqali yoki yozma tarzda);
 kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni xajmi va vaqti ko'rsatilgan holda "Iste'molchiga" oldindan xabar berish;
 elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi "Iste'molchi"ning arizasini, ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko'rib chiqish, "Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalarini"ga muvofiq bartaraf etish va batafsil javob yuborish;
 "Iste'molchi"ga o'rnatilgan tartibda yetkazib berilgan energiya hisobini yuritish;
 "Iste'molchi"ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda - bu haqida, rad etish sababini ko'rsatgan holda, iste'molchiga xabar qilish;
 "Iste'molchi"da o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o'rnatish, plombalashni ta'minlash, davlat standartiga muvofiq bo'lgan elektr energiyasini yetkazib berish.
 Iste'molchining sarflagan elektr energiyasi uchun qarzi vujudga kelganda qarzni besh kun muddatda to'lash zarurligi to'g'risida xabardor qilish (EHNA/Tga ulangan iste'molchilar bundan mustasno);
 Ta'minotchi korxona qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha taraflar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi shuningdek, shartnoma shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, "Ta'minotchi korxona" buning natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi agar:

"Iste'molchi" elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'yganda, "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog'liq o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun;

elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar (IES, GES) va uni magistral tarmoq orqali yetkazib beruvchi (MET) korxonalar tomonidan elektr ta'minotida uzilishlar bo'lganda.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarni o'z ichiga olgan yengib bo'lmaydigan kuch (fers-major) oqibatida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'lmaganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

6. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonitiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

VII. YAKUNIY SHARTLAR

7.1. Shartnoma 2022 yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

7.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabaroma yozma ravishda yuboriladi.

7.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

7.5. Mazkur shartnoma talablarida nazarda tutilmagan tartib – qoidalar Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22 son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda boshqa amaldagi normativ – huquqiy xujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

ISTE'MOLCHILARGA OGOXLANTIRISH !

Umumiy foydalanishdagi elektrtarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr energiyasini hisobga olish asboblari shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarning ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 101 hamda Jinoyat kodeksining 185-2 moddalariga asosan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

VII. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

ISTE'MOLCHI:

Yuridik manzili Toshkent shahar Markaziy tumanida 1-ji

Hisobraqami 100010860262777094100056001 2340200000100001010

Bank kodi (MFO) 00014 STIR (INN) 200541120 201122919

Respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan Iste'molchilar uchun:

Byudjet fondining hisobraqami

Bank kodi (MFO) _____ STIR (INN) _____

Byudjetdan tashqari fondning hisobraqami 400910860262777094100056001

Bank kodi (MFO) _____ STIR (INN) 200541120

QQS to'lovchining kodi _____

Telefonlar: _____ Faks: _____ e-mail: _____

(Iste'molchining, shu jumladan rahbarining uyali faks telefonlari kodi elektron manzil yoziladi)

Kadastr raqami _____

Statistik kodlar:

IFUT (OKED) _____

DBIBT (SOOGU) _____

MIHBT (SOATO) _____

(KFS) _____

TSHK (KOPF) _____

TA'MINOTCHI KORXONA:

Pochta manzili 100047, Toshkent sh. Shayxantaxur tumani Esenina ko'chasi 25 "a" uy

Hisobraqami 2263 6000 1001 2695 8503

Bank kodi (MFO) 00424 STIR (INN) 201052490

QQS to'lovchining kodi _____

Telefonlar: _____ Faks: _____

Statistik kodlar:

DBIBT (SOOGU) _____

MIHBT (SOATO) _____



YURISKONSULT HULOSASI:

Mazkur elektr energiyadan foydalanish shartnomasi

69.3.1

yuriskonsult

Shayxantaxur H.
F.I.Sh.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-sonli qarori talablariga muvofiq tuzilgan. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomani tuzish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari moniylik qilmaydi. Shartnoma ishtirokchilarining xuquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga javob beradi. Shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan javobgarlik masalasi tomonlar o'rtasida qonuniy kelishilgan. Shartnoma yuzasidan shartnoma ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni hal qilish tartibi belgilangan

Yuristkonsult:

Shayxantaxur H.
(imzosi)

YETKAZIB BERILADIGAN ENERGIYA HAJMI

1. Tarif guruhi II
2. Faoliyat turi OTM
3. Iste'molchi elektr qurilmalarining ulangan quvvati: _____ kVA (kVt)
4. Texnik shart raqami _____, sanasi _____
Texnik shart bo'yicha ruxsat berilgan quvvati _____ kVt
5. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) _____
Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (amalda) _____
6. Hisob-kitob turi: бухгалтерский
tarif turi: taboqlashtirilgan, bir stavkali yoki axolign tenglashirilgan (keraklisi yozilgan)
7. Mahalla nomi _____

Oylar	Energiya hajmi	
	Aktiv energiya shartnomaviy miqdori ming. kVt*soat	Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori ming. kVar*soat
Yanvar	130.000	
Fevral	130.000	
Mart	110.000	
Aprel		
May		
Iyun		
Iyul		
Avgust		
Sentyabr		
Oktyabr		
Noyabr		
Dekabr		
Yil, jami		

Ish soat va kunlari: 10 soat, 26 kun

Umumiy yuklamaga nisbatan smenalar bo'yicha yuklanish % hisobida I _____, II _____, III _____

Iste'molchi

Р. Иркинбаев
M.O' (imzo, F.I.Sh., sana)


M.O' (imzo, F.I.Sh., sana)



Energiyani hisobga olish priborlari o'rnatilgan joylar va ularning tavsiflari

"Iste'molchi"ning (subiste'molchining) hisobga olish pribori o'rnatilgan joylar, turi va kuchlanish toifasi (kV) ko'rsatilgan holda	Hisobga olish pribori turi (aktiv), (nominal toki)	Hisobga olish pribori raqami	Hisobga olish pribori klemma qopqog'idagi plombaning raqami	O'lchov transformator- larining transformatsiya koeffitsiyenti		Hisob-kitob Koeffitsiyenti	Hisobga olish priborining sh artnoma tuzilgan kundagi ko'rsatkichlar i, hisoblagich ko'rsatkichi	Tarif turi so'm/ 1 kVts.
				Tok	Kuchla- nish			
РУ-0,4	2420036 1705	EX-518		1000/5	-	200		
РУ-0,4	2420036 1707			11	-	200		
РУ-0,4	2420036 1708			11	-	200		
РУ-0,4	2420036 1704			11	-	200		

IMZOLAR:



Hisoblagich raqami №

Faza	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqamlari
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami №

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqamlari
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami №

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqamlari
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqami
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqami
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami №

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqami
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami №

Faza	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqamlari
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqami
"A"			
"B"			
"C"			


hisoblagich raqami №

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqamlari
"A"			
"B"			
"C"			

hisoblagich raqami

	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	plomba raqami
"A"			
"B"			
"C"			

№	Kuchlanish transformatori		Plomba raqamlari		
	O'lchov koeffitsiyenti	davlat raqamlari	Ajratgichga o'rnatilgan	Avtomatga o'rnatilgan	BI9 ga o'rnatilgan
1					
2					
3					



**TOMONLAR ELEKTR TARMOQLARINING BALANS MANSUBLIGI
VA EKSPLOATASIYA QILISH BO'YICHA MAS'ULLIK CHEGARASI
DALOLATNOMASI**

Izoh: Xar bir elektr energiyasi hisobga olish pribori uchun alohida 3 va 4-ilovalar tuziladi.

Hisobga olish pribori davlat raqami _____ tok transformatori _____ kuchlanish transformatori _____ jami
koefitsiyent _____ ulangan quvvati _____ kVt

Hisobga olish pribori o'rnatilgan joy (manzil) _____

1. "Iste'molchi" ning balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

a) havo elektr tarmog'i _____

b) kabel elektr tarmog'i _____

*ABBT 4x3x95 mm² morka 1-50 m
PY-0,4 kV 2n TP-4447 va 4448 ra*

v) podstantsiyalar, transformator podstantsiyalari TP raqami _____ kVA

2. "Iste'molchi" va "Ta'minotchi korxona" o'rtasidagi elektr tarmoqlarning balans bo'yicha mansublik chegarasi _____

*PY-0,4 kV TP-4447 va 4448 ra sistemadan
Taraqqiye kirib ketgan 0,4 kV kodem uzatqichidan
boshlab sistemalarning barcha TP-TP uzatqichlarini o'z ichiga*

3. Ulardan quyidagilarga:

a) _____

_____ xizmat ko'rsatish "Iste'molchi" xodimlari tomonidan,

b) _____

_____ "Iste'molchi" bilan tuzilgan "Texnik

xizmat ko'rsatish" № _____ sana _____ y. shartnomasi asosida _____ tomonidan xizmat ko'rsatiladi.

4. Elektr qurilmalarning holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik

chegarasi quyidagicha belgilandi:

*TP-4447 va 4448 ra OAO ToshTP
PJX Salomonova*



Ta'minotchi korxona

M.O'.



Vakillar:

Urumbayev M. Dii
(F.I.Sh.)

(F.I.Sh.)

**RASMIY OGHOHLANTIRISH
(TALABNOMA)**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining quyidagi Qaror va Farmonlari 01.11.2004 yildagi V.M.ning 511-sonli qarori, 29.05.2017 yildagi PF-5059-sonli Farmoni, 12.01.2018 y. V.M.ning 22-sonli qarori, 18.06.2020 yildagi PF-6010-sonli Farmoni bilan Elektr energiyasi iste'molchilari va hududiy elektr tarmoqlari korxonalari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni tartibga solingan.

Yuqoridagi normativ hujjatlar asosida tayyorlangan va Tuman ETK bilan Sizing korxonangiz o'rtasida tozilan "Elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish uchun shartnoma"ning talablariga ko'ra;

1. "Elektr tarmoqlari korxonasi tarmoqlari orqali iste'molchiga elektr energiyasini yetkazib berish majburiyatini, iste'molchi esa qabul qilingan elektr haqini to'liq to'lash majburiyatini oladi"

2. "Iste'molchi" har oyning 01-sanasidan - 05 sanasigacha amalda iste'mol qilgan elektr energiyasining xisobotini TETKga taqdim qilishi;

3. "Iste'molchi" tomonidan oyning 10 sanasigacha iste'mol qilingan elektr energiya xajmi oldindan to'lovni inobatga olgan holda to'lov fakturasida ko'rsatilgan summani to'liq to'lab berishi;

4. Oyning 11-sanasidan boshlab, to'lovlarni to'liq amalga oshirmagan qarzdor iste'molchilarni tarmoqdan ajratish belgilangan.

Eslatma: Elektr tarmoqlaridan uzib qo'yilgan shaxslarni elektr tarmog'iga qayta ulashda iste'molchi — yuridik shaxslardan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi. EHTATga ulangan hisobga olish pribori avtomatik tarzda BILING dasturi tomonidan o'chirilgan iste'molchilarni tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi,

Xurmatli iste'molchi !!!

Yuqoridagilarga muvofiq Sizdan, har oyning 10 sanasigacha to'liq xisob kitobni amalga oshirishingiz talab qilinadi. Aks holda, oyning 11-sanasidan boshlab elektr tarmog'idan qo'shimcha ogohlantirishsiz uzilishi, to'plangan xujjatlar xosil bo'lgan qarzdorlik, avans summasi, qayta ulov uchun to'lov summasi, davlat boji, jarima, penya hamda pochta xarajatlarini majburiy undirish to'g'risida tegishli sudga da'vo arizasi kiritilishini ma'lum qilamiz. Qarzdorlik uchun tarmoqdan o'chirilganda kelib chiquvchi turli oqibatlar uchun javobgarlik qarzdor iste'molchi zimmasida qoladi.

Mazkur ogohlantirish asosiy shartnomaning ajralmas qismi hisoblanib 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

